


## 2022- yilning yanvar-martida Jizzax viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-martida Jizzax viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 4 166,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 4,7 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 113,9 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 2,6 % ga yetdi.




**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

|   | <i>Mrd. so'm</i> |                  | <i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i> |
|---|------------------|------------------|--|
|   | <i>2021- yil</i> | <i>2022- yil</i> |  |
| <b>I. YAHM, jami</b>                              | 3 496,5          | 4 166,7          | 104,7  |
| <i>shu jumladan:</i>                              |                  |                  |  |
| tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati            | 3 371,1          | 4 036,8          | 104,5  |
| mahsulotlarga sof soliqlar                        | 125,4            | 129,9            | 109,8  |
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b> | <b>3 371,1</b>   | <b>4 036,8</b>   | <b>104,5</b>   |
| <b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>   | <b>1 210,6</b>   | <b>1 332,9</b>   | <b>102,9</b>   |
| <b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>         | <b>750,4</b>     | <b>1 017,7</b>   | <b>104,6</b>   |
| sanoat  | 498,1            | 745,5            | 104,7  |
| qurilish  | 252,3            | 272,2            | 104,6  |
| <b>xizmatlar</b>                                  | <b>1 410,1</b>   | <b>1 686,2</b>   | <b>105,7</b>   |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar  | 276,6            | 345,2            | 112,4  |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa              | 163,8            | 188,1            | 110,1  |
| boshqa xizmat tarmoqlari                          | 969,7            | 1 152,9          | 103,1  |

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 2 879,5 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 % ga yuqoridir.

## 2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o‘shish sur‘atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 33,0 % ni, sanoat tarmog‘i 18,5 % ni, qurilish 6,7 % ni va xizmatlar sohasi 41,8 % ni tashkil qildi.

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

|   | 2021- yil    | 2022- yil    |
|---|--------------|--------------|
| <b>I. YAHM, jami</b>                              | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
| <i>shu jumladan:</i>                              |              |              |
| tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati            | 96,4         | 96,9         |
| mahsulotlarga sof soliqlar                        | 3,6          | 3,1          |
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b> | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
| <b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>   | <b>35,9</b>  | <b>33,0</b>  |
| <b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>         | <b>22,3</b>  | <b>25,2</b>  |
| sanoat  | 14,8         | 18,5         |
| qurilish  | 7,5          | 6,7          |
| <b>xizmatlar</b>                                  | <b>41,8</b>  | <b>41,8</b>  |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar  | 8,2          | 8,6          |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa              | 4,9          | 4,7          |
| boshqa xizmat tarmoqlari                          | 28,7         | 28,5         |

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 102,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 33,0 %), sanoatda – 104,7 % (18,5 %), qurilishda – 104,6 % (6,7 %), xizmatlar sohasida – 105,7 % ni (41,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,4 % (8,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 110,1 % (4,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,1 % dan (28,5 %) iborat bo'ldi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,0 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,7 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 2,1 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,3 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,9 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 2,3 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,7 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi

## 2022- yilning yanvar-martida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-martida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 113,9 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 143,0 % va xizmatlar – 113,1 % qayd etildi.

## 2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



## 2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 72,5 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-martida – 74,5 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

2021- yil

74,5 %

2022- yil

72,5 %